



**“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI
RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA
ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya**



UDK. 633.11:631.52

**KO‘P YILLIK BUG‘DOY NAV VA NAMUNALARINING DON SIFAT
KO‘RSATKICHLARIGA HAVO HARORATINING TA’SIRI**

Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti

Tayanch doktorant: Nortojiyev Sunnatillo Farhod o‘g‘li

Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor: Amanov Amir Amanovich

E-mail: nortojiyevsunnatillo@gmail.com

Telefon nomer: +998939263660

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19239654>

Annotasiya: Janubiy mintaqada ilk bor ko‘p yillik bug‘doy nav va namunalari ustida tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Maqolada ko‘p yillik bug‘doyning don tarkibidagi kleykovina miqdori o‘rganilganda o‘rtacha 24,7-33,4 % ni tashkil etganligi olib borilgan laboratoriya tahlil natijalarida kuzatildi.

Kleykovina miqdori eng yuqori ko‘rsatkichga ega 4 ta namuna borligi aniqlanib andoza navlarga nisbatan 1,8-5,5 % ga yuqori ko‘rsatkichni namoyon etdi.

Kalit so‘zlari: don, janubiy mintaq, namunalar, ko‘p yillik bug‘doy, kleykovina, tadqiqot, ko‘rsatkich, miqdor, tahlil, nav, havo harorati, laboratoriya, o‘rtacha.

Аннотация: Впервые в южном регионе проводятся исследования многолетних сортов и образцов пшеницы. В статье показано, что среднее содержание глютена в зерне многолетней пшеницы, согласно результатам лабораторного анализа, составляет 24,7-33,4%.

Выяснилось, что у 4 образцов было самое высокое содержание глютена, на 1,8-5,5% выше, чем у стандартных сортов.

Ключевые слова: зерно, южный регион, образцы, многолетняя пшеница, глютен, исследование, показатель, количество, анализ, сорт, температура воздуха, лаборатория, среднее значение.

Annotation: For the first time in the southern region, research is being conducted on perennial wheat varieties and samples. The article shows that the average gluten content of perennial wheat in the grain was 24.7-33.4%, according to the results of laboratory analysis.

It was found that there were 4 samples with the highest gluten content, which was 1.8-5.5% higher than the standard varieties.

Key words: grain, southern region, samples, perennial wheat, gluten, research, indicator, quantity, analysis, variety, air temperature, laboratory, average.

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Hozirgi kunda dunyoda kechayotgan global iqlim o‘zgarishi oqibatida o‘rtacha havo-haroratining 2 °C ga ko‘tarilishi, yog‘ingarchilik miqdorining kamayib ketishi, turli mintaqalarda animal sovuq hamda animal isib ketishi holatlari tez-tez kuzatilishi oqibatlarida, o‘simliklarning o‘sib rivojlanishi uchun ancha noqulay sharoitlar tug‘dirmoqda. Buning natijasida esa bug‘doy hosildorligining pasayib ketishi hamda don sifati ko‘rsatkichlariga yomon tasir ko‘rsatmoqda.

Respublikamizda 2025-yilgi hosili uchun jami 1 mln 300 ming gektardan ortiq maydonlarga boshqqli don ekinlari yetishtirilib kelinmoqda. Bug‘doy eng muhim oziq-ovqat manbai hisoblandi. Hozirgi kunda Respublikamizning janubiy mintaqalarida boshqqli don ekinlarining boshqqlash va pishish davrida havo-haroratining +45°C dan +49,3°C gacha ko‘tarilib



“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



ketishi natijasida, bug‘doy donining puch bo‘lib qolishi, hosildorlikka hamda donning sifat ko‘rsatkichlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Buning uchun iqlim o‘zgarishi sharoitlarida yuqori hosil beradigan, don sifat ko‘rsatkichlari yuqori hamda ertapishar nav va qimmatli manbalarni yaratish muhim vazifalardan biri hisoblandi.

Adabiyotlar sharhi. Aydarov A. N va boshqa olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra, CIMMYT (Xalqaro makkajo‘xori va bug‘doyni yaxshilash markazi) 2017 yildan 2020 yilgacha bo‘lgan davrda o‘z tadqiqot ishlarini olib borgan va olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ko‘p yillik bug‘doy namunalarining don tarkibidagi oqsil va kleykovina miqdori bo‘yicha kuzgi bug‘doyning don tarkibidagi oqsil va kleykovina miqdoridan yuqori ekanligi aniqlandi [1; 197-205 b].

Bug‘doy o‘simligining hosildorligiga salbiy tasir ko‘rsatadigan abiotik omillardan biri bu tuproqning sho‘rlanishidir. Tuproqning sho‘rlanishi hisobiga hosildorlik pasayadi va donning sifatining yomonlashishiga olib keladi deya ta‘kidlaydi olimlar [2; 731-735 b].

Jo‘rayev D.T va boshqa olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra, yumshoq bug‘doyning 25-30 °C yuqori havo haroratida ham hosildorligi, don sifat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan yangi navlarni yaratish va ishlab chiqarishga joriy qilish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi [3; 29-b].


Z.Ziyodullayev. Sh.Dilmurodov. A. Fayzullayev va boshqa olimlarning yozishicha, bug‘doy doni kleykovinasi miqdoriga qarab quydagi sinflarga bo‘linadi; 1-sinf kleykovina miqdori 28 % dan kam bo‘lmagan; 2-sinf kleykovina miqdori 25 % dan kam bo‘lmagan; 3-sinf kleykovina miqdori 22 % dan kam bo‘lmagan; agar kleykovina miqdori 22 % dan kam bo‘lsa va sifati II guruhdan past bo‘lsa bunday bug‘doy “sinfisiz” deyiladi [4; 25-26 b].

Tadqiqotning usulublari Tadqiqot ishi tajribani joylashtirish va tajriba davomida fenologik kuzatish, hisob va tahlillar “Butunrossiya O‘simlikshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti uslubi”, Qurg‘oqchilikka chidamlilik Kojushko usuli bo‘yicha amalga oshirildi. Kleykovina miqdori GOST 13586-1-68, don shishasimonligi GOST 10987-76, don namligi GOST 13586-5-93, don naturasi GOST 3040-55, 1000 ta don vazni GOST 10842-89, oqsil miqdori GOST 10846-91 bo‘yicha O‘ZDST-880 talablariga mosligi taqqoslanib o‘rganildi. Olingan ma‘lumotlarning matematik-statistik tahlili esa B.A.Dospexov uslubi bo‘yicha bajarilgan.

Tadqiqot natijalari. Olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, 2025-yilning may va iyun oylarida o‘rtacha havo harorati +27,2 °C dan 29,5 °C ni tashkil etib don sifatining shakllanishida harorat va namlik muhim ahamiyatga ega bo‘lib, vegetatsiya davri davomida va ayniqsa don to‘lishish davrida ularning tasiri juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu davrda havo haroratining yuqori bo‘lishi va namlikning kamligi yumshoq bug‘doy donlarida yuqori sifatli oqsilning ko‘p miqdorda shakllanishiga olib keladi.

Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot institutining “Qishloq xo‘jaligini saqlash, qayta ishlash va yalpi tahlillash” laboratoriyasida nav va namunalarning sifat ko‘rsatkichlari o‘rganildi (1-rasmga qarang).

1-rasm



Nav va namunalarning don tarkibidagi kleykovina miqdori, % (Qarshi 2023-2025 yy)

va tahlil qilinganda GOST 13586-1-68 uslubi asosida kleykovina miqdori aniqlanganda yillar bo'yicha o'rtacha 24,7-33,4 % ni tashkil etib, andoza “Bezostaya” navida kleykovina miqdori 27,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, “Bezostaya 1” navida esa 28,4 % kleykovina miqdori borligi o'z ifodasini topdi.

Andoza navlardan kleykovina miqdori 1,8-5,5 % gacha yuqori bo'lgan tizmalar borligi aniqlanib ularning soni 4 tani tashkil qilganligi aniqlandi

Bular, KR23-PW-ON-9 tizma 32,4 %, KR23-PW-ON-21 tizma 33,4 %, KR23-PW-ON-24 tizma 31,3 % KR23-PW-ON-28 tizmada esa 29,7 % ni tashkil etib andoza navlardan kleykovina miqdori yuqori ekanligini namoyon etdi va eng past ko'rsatkichga ega KR23-PW-ON-6 tizma 25,2 %, KR23-PW-ON-8 tizma 24,8 % ni va KR23-PW-ON-14 tizmalarida 24,7 % kleykovina miqdori past ekanligi aniqlandi. hamda oqsil miqdori bilan kleykovina miqdori o'rasida ijobiy $r=0,90$ korrelyativ bog'liqlik borligi aniqlandi.

XULOSALAR

Xulosa qilib shuni aytish joizki, o'rganilayotgan ko'p yillik bug'doy nav va namunalarning kleykovina miqdori tahlil qilinganda andoza navlarga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichga ega 4 ta namunalar borligi aniqlandi. Ular andoza navlarga nisbatan kleykovina miqdori 1,8-5,5 % ga yuqori ekanligi kuzatildi hamda seleksiyaning keyingi bosqichi uchun tanlab olindi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Айдаров А. Н., Шепелев С. С., Шаманин В. П. Оценка коллекции многолетней пшеницы в условиях южной лесостепи Западной Сибири //Письма в Вавиловский журнал генетики и селекции 2022. С.197-205

2. <https://pismavavilov.ru/wp-content/uploads/2022/07/004-PVJ-Aydarov.pdf>

3. F.Sh.Sobirov “bug'doyning turli abiotik va biotik omillarga chidamliligini oshirishda yovvoyi turlarining o'rni” //Scientific progress. – 2021. – T. 1. – №. 5. – С. 731-735.

4. D. T. Jo'rayev, A. Amanov, O. Amanov, Sh. Dilmurodov, A. Meyliev. “Yumshoq bug'doyning respublika cho'l mintaqalari sharoitida abiotik omillarga chidamli hosildor nav va boshlang'ich manbalarni yaratish” // Monografiya-Toshkent-2024 yil. 29-bet



**“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI
RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA
ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya**



1. Z.Ziyodullayev. Sh.Dilmurodov. A. Fayzullayev “Sug‘oriladigan maydonlar uchun yumshoq bug‘doyning yangi navlarini yaratish” //Agro ilm № 6 [50].2017 y 25-26 bet